

## **FARG‘ONA VODIYSI BRONZA DAVRI MADANIYATINING DAVRLASHTIRILISHI: CHUST MADANIYATI**

**Abdumuxtor Abduxalimovich XAKIMOV**

Dotsent

Tarix fanlari bo'yicha (PhD) falsafa doktori

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti

Andijon, O'zbekiston

### **Annotatsiya**

Ushbu maqolada Farg'ona vodiysining bronza – ilk temir davri madaniyatining davrlashtirilishi yoritilgan. Shuningdek, Farg'ona qadimgi davrining xronologiyasi ketma-ketligiga dastlab, ya'ni Chust madaniyati tizimi shakllanganligi arxeologik tadqiqotlar asosida bayon etilgan.

**Tayanch so'zlar:** O'rta Osiyo, Farg'ona vodiysi, Chust madaniyati, Dalvarzin, Zarg'aldoqtepa, Sho'rtepa, Chust, O'sh, Hojambog', Bo'ztepa, Sassiqbura, Qo'shoqtepa.

## **ПЕРИОДИЗАЦИЯ КУЛЬТУРЫ БРОНЗОВОГО ВЕКА ФЕРГАНСКОЙ ДОЛИНЫ: ЧУСТСКАЯ КУЛЬТУРА**

**Абдумухтар Абдухалимович ХАКИМОВ**

Доцент

доктор философии (PhD) по историческим наукам

Андижанский институт экономики и строительства

Андижан, Узбекистан

### **Аннотация**

В данной статье описана периодизация культуры бронзового-раннего железного века Ферганской долины. Также на основе археологических исследований установлено, что чустская культурная система сформировалась первой в хронологической последовательности древнего периода Ферганы.

**Ключевые слова:** Средняя Азия, Ферганская долина, Чустская культура, Далварзин, Заргалдоктепа, Шортепа, Чуст, Ош, Ходжамбог, Бозтепа, Сассикбука, Кошоктепа.

Farg'ona vodiysi O'rta Osiyodagi eng go'zal vohalar sirasiga kirib, bu yerda qadimdan inson hayoti va sermahsul faoliyati uchun o'ta qulay tabiiy sharoit mavjuddir. Har tarafdin tog'lar bilan o'ralgan bu makonda turli iqlim sharoitlarini vodiyning turli hududlarida – Markaziy Farg'ona vodiysining jazirama cho'lidan tortib to viqorli tog'lardagi abadiy qorlargacha kuzatish mumkin.

Vodiyning baland tog'lar bilan o'ralib turganligi nafaqat dehqonchilik barobarida chorvachilik rivoji uchun ajoyib sharoit yaratgan, balki uzoq vaqt mobaynida Farg'ona vodiysida ketma-ket almashinib rivojlanib kelgan madaniyat

sohiblari yurtimiz qadim tarixiy sahnasida paydo bo'lgan buyuk saltanatlar va ulug'vor davlatlarining salbiy ta'siriga uchramay o'ziga xos mustaqil taraqqiyot yo'lidan borganlar.

Muntazam arxeologik tadqiqotlar Farg'ona vodiysida 1930-yili GAIMK ekspeditsiyasi dala tadqiqotlari bilan boshlangan [5;170]. Ikkinchi jahon urushidan so'ng kengaytirilib, urinishlar natijasi o'laroq, qadimshunos olimlar tomonidan tosh davridan o'rta asrlargacha bo'lgan xronologik davrga oid ko'plab topilmalar qo'lga kiritilgan. Arxeologik topilmalar ko'payib borishi barobarida Farg'ona vodiysi eng qadimgi davrlardan buyon odamlar tomonidan o'zlashtirilib, bir necha ming yillik sug'orma dehqonchilik tarixiga ega ekanligi tobora oydinlashib borgan. Zero, vodiy yodgorliklaridan dala tadqiqotlari jarayonida olingan arxeologik materiallari mil. avv. III–I ming yilliklariga to'g'ri kelgan va tabiiyki, bu qadar katta tarixiy davr yodgorliklari bir xil bo'lmagan.

Mil. avv. II ming yillikning oxiri va I ming yillikning birinchi choragida O'zbekiston hududidagi qadimgi dehqon jamoalarining yana bir markazi Farg'ona vodiysida o'rganilgan Chust madaniyati edi. Chust madaniyatiga tegishli birinchi yodgorlik 1950-yili M.E.Vorones tomonidan hozirgi Chust shahridan 2–3 km chamasi shimolda, qadimgi buloq sohilida topilgan.

V.I.Sprishevskiy G'ovasoy vohasidagi Chust shahrining shimoliy chekkasida joylashgan Chust yodgorligida (Buonamozor) arxeologik izlanishlar olib bordi. M.E.Vorones va V.I.Sprishevskiylarning bir necha yil davomida olib borgan izlanishlari natijasida faqat shu yodgorlik hududidagina emas, balki butun Chust madaniyati tarqalgan hududlardagi dehqon jamoalarining moddiy madaniyati to'liqligicha namoyon bo'ladi.

Chust yodgorligini keyingi o'rganilishida Sankt-Peterburglik olim Yu.A.Zadneprovskiy va uning shogirdi B.X.Matboboyevlarning xizmatlari katta bo'ldi. 1974-yili Yu.A.Zadneprovskiy tomonidan bu yerda yangidan qazuv-qidiruv ishlari olib borildi. Chunki o'tgan yillar davomida tabiiy sharoit va e'tiborsizlik oqibatida yodgorlik qariyb buzilib ketgan edi. Qazishmalar vaqtida 1956-yilda aniqlangan mudofaa devorlari qayta ochib o'rganildi [1;46–71]. Uy-joy qurilishi

hamda sopol buyumlari kompleksi va metall buyumlar namunalari qaytadan tekshirildi.

1982–1983-yillarda akademik A.A.Asqarov xabarligida B.X.Matboboyev tomonidan o‘tkazilgan qazishmalar vaqtida Chust manzilgohida aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayotidan darak beruvchi ilgari topilgan arxeologik ashyolar yangi topilmalar bilan boyidi va arxeologiya fani uchun qimmatli ma’lumotlar qo‘lga kiritildi [1;46–71]. Arxeologik tadqiqotlar natijasida quyidagi ma’lumotlar olindi:

- Chust turar-joylari uch xil: sinchli uylar, paxsa va g‘ishtdan tiklangan uylar xamda yerto‘lalardan iborat bo‘lgan;
- dehqonchilik mavsumiy suvlardan foydalanilgan holda va sun’iy sug‘orish tizimining yo‘lga qo‘yilishi natijasida amalga oshirilgan;
- chorvachilikning xonaki usuli rivojlangan va ovchilik ham o‘rin olgan;
- kulolchilik, to‘qimachilik, metall ishlash, zargarlik, sangtaroshlik va boshqa hunarmandchilik sohalari ajralib chiqqan va keng rivojlangan;
- dafn marosimi bilan bog‘liq ma’lum bir urf-odatlar ham aniqlangan. Ya’ni marhumlar chalqanchasiga o‘ng yoki chap tomoni bilan yotqizilgan [6;38–42].

B.X.Matboboyev olib borilgan tadqiqotlarining xulosasi sifatida 4 gektar hududni egallagan Chust yodgorligi tuzilishi va xo‘jaligidagi xususiyatlariga ko‘ra shaharmonand manzilgoh bo‘lgan degan fikrni ilgari surdi va bu ko‘pchilik olimlar tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. Arxeologik materiallar tahlil etilib mahalliy xususiyatlari ochib berildi [5;170].

1952-yilda Andijon viloyatining Oyim qishlog‘idagi Dalvarzin yodgorligi ochildi va aynan shu yodgorlikda Yu.A.Zadneprovskiy tomonidan ko‘p yillik arxeologik izlanishlar olib borildi [9;33–42]. Shu yillari vodiylar hududlarida ko‘plab bronza davriga oid arxeologik yodgorliklar topildi va o‘rganildi. Jumladan, 1957-yili Andijon viloyat o‘lkashunoslik muzeyi xodimasi V.I.Kozenkova Zarg‘aldoqtepa va Sho‘rtepada bronza davriga oid yodgorliklarni ochishga muvaffaq bo‘ldi. O‘sha yili Yu.A.Zadneprovskiy Dalvarzindan 5-6 km shimoliy-sharqda, Qoradaryoning chap qirg‘og‘ida joylashgan Ashqoltepa yodgorligini

ochib o'rgandi. Ashqoltepa Farg'ona vodiysining bronza davriga oid yirik yodgorliklaridan biri bo'lib, mazkur yodgorlikda olib borilgan ilmiy tekshirish ishlari natijasida bu yerdan aynan Dalvarzin topilmalariga o'xshash ashyolar qo'lga kiritildi. Xususan, mutaxassislar fikriga ko'ra, bu yerdan topilgan kulolchilik buyumlari o'z shakli va bezalishiga ko'ra Dalvarzindagidan farq qilmaydi. Biroq diqqat bilan qaralsa, moddiy madaniyatda ayrim juz'iy farqlar borligi kuzatiladi.

Hozirgi paytda Farg'ona vodiysida Chust madaniyatiga doir 80 dan ortiq yodgorlik aniqlangan. Shu yodgorliklarning to'rttasi yirik yodgorliklar jumlasiga kiradi. Bular Dalvarzin, Chust (Buonamozortepa), O'sh, Ashqoltepa guruhi yodgorliklaridir.

Dalvarzin, Chust va O'sh yodgorliklarida Yu.A.Zadneprovskiy tomonidan ancha katta statsionar qazishmalar olib borilgan va stratigrafik shurflar solingan. Bo'ztepa yodgorligi esa to'liq qazib o'rganilgan.

Chust madaniyatning muhim belgilardan biri bu dehqon jamoalari tomonidan yasalgan kulolchilik mahsulotlaridir. Kulolchilik mahsulotlari charxsiz qo'lda yasalgan turli xil idishlardan (sferokonus shaklli kosalar, nim kosalar, bankasimon xurmachalar, xumcha va tog'oralar, oshxona sopol qozonlari, mitti idishlar va boshqalar) iborat. Topilgan sopol idishlarning tipi unchalik ko'p bo'lmagan. Asosan silindr shaklli, ozgina bo'yin va lab qismi orqaga tortilgan xurmachalar, yuqori qismi ozgina orqaga tortilgan kosalar, cho'zinchoq, chuqur qilib yasalgan va tashqi tarafidan geometrik shakldagi naqsh berilgan idishlar ko'proq uchraydi. Qizil angob bilan va ba'zi hollarda qora bo'yoq bilan bezatilgan sopol idishlar Chust madaniyatiga taalluqli ekanligini aniqlovchi asosiy ko'rsatkich bo'lib kelmoqda.

Chust madaniyatiga oid yodgorliklarning yana bir xarakterli xususiyatlaridan biri shundan iboratki, ularda alohida ajratilgan qabrlar yo'q. Bundan ijtimoiy tengsizlik masalasiga ma'lum ma'noda aniqliklar kiritish mumkin bo'ladi. Ya'ni bu davr aholi hayotida tengsizlik holati ko'rinmaydi. Chust madaniyatida turar-

joylar ostiga dafn etish amalga oshirilgan. Qoidaga ko'ra, jasad yonga bukchaytirilgan holda dafn qilingan [2;27].

Chust madaniyatiga doir yodgorliklar asosan kichik maydonlarni egallagan, ko'proq bir gektargacha bo'lgan maydonni egallagan manzilgohlardir. 4–5 gektar hajmdagi uncha katta bo'lmagan va ikkita katta maydonga ega bo'lgan – 13 ga li Ashqoltepa va 25 ga li Dalvarzin manzilgohlari ma'lum.

Chust madaniyatining turli yodgorliklarida (Dalvarzin, Chust, O'sh, Xojambog', Bo'ztepa, Sassiqbura, Qo'shoqtepa va b.) uy-joy qoldiqlari o'rganilgan. Ushbu uy-joy qoldiqlari me'moriy yechimiga ko'ra uch xilga bo'linadi [7;101–108].

1. Yengil qora uylar (kapa shaklida). Bu xil uy-joylar Chust va Dalvarzinda topilgan. Ular faqat o'lchamlari va bajargan vazifasiga ko'ra bir-biridan farqlanishi mumkin. V.I.Sprishevskiy bunday kapa uylarni yodgorlikning dastlabki davriga oid deb hisoblaydi. Bunday turar-joylardan hozirgidagi kabi vaqtinchalik, ya'ni iqlim issiq paytlarda foydalanilgan bo'lishi ehtimoldan holi emas. Yengil uylar va sinchkori uylar an'anasi uzoq davom etib, to hozirga qadar Farg'ona vodiysi va Toshkent viloyatlarida amal qilib kelmoqda. Chunki bunday uylar foydalanish uchun qulay, arzon va tezda qurib bitkazish mumkin. Shuningdek, «karkas» usulida tiklangan uylar bugunga qadar O'zbekistonning ayrim viloyatlarida hamda Xitoyning Sharqiy Turkiston hududida ham saqlangan [7;105].

2. Yarim yerto'laga o'xshash uylar Dalvarzin, Chust va O'shda aniqlangan. Mazkur uchala yodgorlikdagi yarim yerto'lalar bir-birlaridan qisman farqlanadi. Xususan, Chustda ular shaklan yumaloqqa yaqin, o'rtada tayanch ustuni yo'q, Dalvarzinda to'rtburchak shaklda hamda yon devorlari g'isht bilan ko'tarilgan, o'rtada tayanch ustunlari mavjud. Ular sathida maishiy chiqit qoldiqlari, o'choqlar, shuningdek, o'rta asrlarga oid dasturxonlarni eslatadigan dasturxon qayd etilgan. O'sh qarorgohida mayda va katta diametrli ustunlar tizimi aniqlangan bo'lib, ular qurilish texnikasini aniqlashda muhim manba vazifasini o'taydi. Albatta, ustunlar saqlanmagan, faqat ularning o'rni chuqurchalar ko'rinishida aniqlangan. Katta

diametrdagilar markaziy ustunlar bo'lib, qolganlari atrof devorlarni ushlash uchun xizmat qilgan.

### 3. Paxsa va xom g'ishtlardan tiklangan uylar.

Yu.A.Zadneprovskiy o'zining Chust va Dalvarzin yodgorliklarida olib borgan izlanishlarining natijalaridan kelib chiqib, «Chust madaniyatiga xos bo'lgan yarim yerto'la yoki chayla tipidagi turar-joylar faqat yozgi uy-joylarning qoldiqlari bo'lishi mumkin» degan edi. Ammo uning O'sh yodgorliklarini o'rganish mobaynida Sulaymontog' etaklarida olib borgan izlanishlari salmoqli natijalar berdi [3;172].

Shunday qilib, Chust madaniyatiga xos bo'lgan asosiy turarjoylar dastlab yerto'la, yarim yerto'la hamda sinchli qilib tiklangan yengil uylardan iborat bo'lgan. Yu.A.Zadneprovskiy O'sh yodgorligidan topilgan yerto'lalarni ham yashash uchun va xo'jalik ishlari uchun mo'ljallangan uylarga ajratadi. Ularning yashash uchun mo'ljallanganlarini markaziy xonasining hajmini kattaligi uchun to'rt ustunli qilib qurilganligida deb biladi [3;34].

Hozirgi paytda Chust madaniyati yodgorliklari mil. avv. II ming yilliklarning o'rtalaridan I ming yilliklarni boshlarigacha, hatto mil. avv. VIII–VII asrlargacha bo'lgan davrlar bilan davrlashtirilmoqda. Ammo bu masalada boshqacha nuqtai nazarlar ham bor. Ayrim olimlar bu madaniyatni boshlanish qismini mil. avv. III ming yilliklar bilan davrlashtirish kerak, deyishsa [4;186–187], boshqalar uning oxirini mil. avv. VI asrgacha olib kelish kerak, deb hisoblaydilar [8;21–32]. A.Sagdullaev va A.I.Terenojkinlar Chust madaniyati sanasini bir oz yoshartiradi. Bu alohida muammoli mavzu. Bu masalani ayrim jihatlariga B.X.Matboboyev to'xtalgan. Bizningcha, uni yoshartirish Farg'ona qadimgi davrini xronologiyasi ketma-ketligiga zid, ya'ni Chust madaniyati – Eylaton madaniyati – Sho'rabashot madaniyati – Marhamat madaniyati tizimi shakllangan. Shuning uchun ayrim tadqiqotchilarni bu tizimni o'zgartirishga harakatlari asossiz va arxeologik materiallarga asoslanmagan.

Xulosa qilib aytganda, Farg‘ona vodiysidagi qadimgi dehqonchilik madaniyati aynan Chust madaniyati davridan keng tarqaldi va butun O‘rta Osiyo hududi vohalariga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi.

#### FOYDALINILGAN ADABIYOTLAR:

1. Заднепровский Ю.А. Матбабаев Б.Х. Основные итоги изучения Чустского поселения в Фергане (1950-1982 гг.) // ИМКУ. – Вып. 19. – Ташкент, 1984. – С. 46-71.
2. Заднепровский Ю.А. Чустская культура Ферганы и памятники раннежелезного века Средней Азии: Автореф дис. докт. ист. наук. – Москва, 1978.
3. Заднепровский Ю.А. Ошское поселение. К истории Ферганы в эпоху поздней бронзы. – Бишкек: Мурас. 1997. – 172 с.
4. Исамиддинов М.Х. Истоки городской культуры Самаркандского Согда (проблемы взаимодействия культурных традиций в эпоху раннежелезного века и в период античности). – Ташкент. 2002.
5. Матбабаев Б.Х. Локальные варианты чустской культуры Ферганы: дисс. на соис. уч. ст. канд. ист. наук. – Ленинград: ЛОИА АН СССР, 1985.
6. Матбобоев Б.Х. Чуст ёдгорлиги // Фарғона водийсининг қадимги шаҳарлари. – Тошкент, 2008.
7. Матбабаев Б.Х., Иванов Г.П. Новое о типах жилищ на поселениях чустской культуры в связи с раскопами Дальварзина // Археологические исследования в Узбекистане 2003 год. – Ташкент, 2004. – Вып. 4. – С. 101-108.
8. Сагдуллаев А.С. О соотношении древнеземледельческих комплексов Ферганы и Бактрии. //СА. – 1985. – №4. – С. 21-32.
9. Хакимов А.А. Фарғона водийсидаги қадимги Чуст деҳқончилиқ маданиятининг археологик ўрганилиши. //“Фарғона водийсининг қадим ва ўрта асрлар археологияси, этнографияси, тарихи муаммолари ва уларнинг таҳлили” ҳамда “Қадимий Довон давлати ҳудуди бўйлаб туризмни

ривожлантириш масалалари” халқаро илмий-амалий анжуман материаллари.  
– Андижон, 2023 йил 8-9 Сентябр. – Б.33-42.